Kalit so'zlar: nutq, madaniyat, boshlang'ich sinflar, metodika, ona tili, o'quvchi, o'qituvchi, zamonaviy yondashuv, pedagogika, samaradorlik.

Abstract: This article studies the scientific-theoretical foundations and pedagogical conditions for the formation of speech culture in primary school students. The methodology for developing students' oral and written speech based on modern educational requirements is analyzed. During the study, the effectiveness of interactive methods and digital technologies in speech development was substantiated through experimental work. The article also analyzes the definition of the concept of speech, its history of origin, and the views of Eastern scholars on the necessity of speech development.

Key words: speech, culture, primary school, methodology, native language, student, teacher, modern approach, pedagogy, effectiveness.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы и педагогические условия формирования речевой культуры у учащихся начальной школы. Анализируется методика развития устной и письменной речи учащихся с учетом современных образовательных требований. В ходе исследования экспериментальным путем обоснована эффективность интерактивных методов и цифровых технологий в развитии речи. Также анализируются определение понятия речи, история его возникновения и взгляды восточных ученых на необходимость развития речи.

Ключевые слова: речь, культура, начальная школа, методика, родной язык, ученик, учитель, современный подход, педагогика, эффективность.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining bosh maqsadi har tomonlama rivojlangan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Shaxs taraqqiyotining poydevori esa boshlang'ich sinflarda qo'yiladi. Ushbu davrda o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish ularning ijtimoiy moslashuvi va kelgusi akademik muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Xususan, boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to'g'riligi ustida ishlash boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirishda o'qituvchining o'quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sanaladi [5; 12-b.].

Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o'tmish Sharq mutafakkirlari ijodida ham markaziy o'rin egallagan. Forobiy to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq sohibi bo'lish haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta'lim berish va olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu haqidagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substansiya (mustaqil, o'z-o'zidan mavjud) va aksidensiya (tasodifan namoyon bo'luvchi holat)larga ism beruvchi til haqidagi ilmdir, deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so'zlarni hamda nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm logikadir: u ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy shakllarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz" [2: 54-b.].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq atamasi arabcha so'zdan olingan bo'lib, so'zlash, gapirish qobiliyati ma'nolarini bildiradi. Nutq tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni hamda shu jarayonning hosilasidir.

Ma'lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning o'rni hamda roli qadimdan ko'pchilikni qiziqtirib kelgan. Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida nutqni ... ma'naviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so'zlash quvvati haqida shunday deydi: "...so'zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan-bo'lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi" [2: 188-b.].

M.Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asarida "Adab boshi – til" maqoli keltirilgan. Bu buyuk ajdodlarimizning inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog'li ahamiyatli ekanligiga urg'u berganini ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so'z orqali ayon bo'lishini aytib, nutqning ravon bo'lishiga da'vat etadi: "Uquv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali topadi. ... Hech qachon ko'p gapirma. Juda oz so'zla. Tuman so'z tugunini bitta so'z bilan yozib yubor, ya'ni oz so'zlarga ko'proq ma'no singdirish payidan bo'lgin".

Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida so'zlash madaniyati quyidagicha e'tirof etadi: "... xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so'zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar, ... har kishining ahvoli o'z so'zi ostida yashiringan bo'ladi." [4]

Ma'naviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so'zlash quvvati haqida shunday deydi: "... so'zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan hamda bo'lmagan ishlarni ado etadi. Shu bilan birga, zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi" [2: 188-b.].

M. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "Adab boshi – til" maqoli keltirilgan. Bu buyuk ajdodlarimizning inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog'li ahamiyatli ekanligiga urg'u berganini ko'rsatadi.

Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so'z orqali ayon bo'lishini aytib, nutqning ravon bo'lishiga da'vat etadi: "Uquv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali topadi. ... Hech qachon ko'p gapirma. Juda oz so'zla. Tuman so'z tugunini bitta so'z bilan yozib yubor, ya'ni oz so'zlarga ko'proq ma'no singdirish payidan bo'lgin".

Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida so'zlash madaniyatini quyidagicha e'tirof etadi: "... xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so'zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar. ... Har kishining ahvoli o'z so'zi ostida yashiringan bo'ladi" [4].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish masalasi hozirgi uslubiy adabiyotlarda til, lug'at boyligi va nutq madaniyati haqidagi bilimlarga turlicha yondashuvlar asosida hal qilinadi.

Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish masalasi o'tgan asrning 30–50-yillarida A. Sa'diy, S. Dolimovlar tomonidan, 60-yillardan keyin esa pedagogika fanlari nomzodi Y. Abdullayev, pedagogika fanlari doktori Q. Abdullayeva, professor K. Qosimova, B. Turdiyev, A. G'ulomov, M. Asqarova, S. Matchonov, Sh. Yusupova, T. Ziyodova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

A. Sa'diy adabiyot o'qitishda qahramonlarga og'zaki va yozma tavsif berish, S. Dolimov esa yozma bayon va adabiy-ijodiy ishlarni tashkil etishda o'quvchilar nutqiy boyligining ahamiyati bo'yicha metodik tavsiyalarni qayd etgan.



Q. Abdullayeva “1-sinfda nutq o‘stirish” metodik qo‘llanmasida o‘quvchilarni tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, savod o‘rgatish davrida mantiqiy mashqlarni mustaqil tashkil etish, didaktik materiallar va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish usullarini bayon etgan^[1].

K. Qosimova “5-sinf ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash” kitobida lug‘aviy mashqlarni tashkil etish metodikasi xususida so‘z yuritadi [9]. Tilning lug‘at tarkibi o‘quvchining nutqiy rivojlanishi va atrofdagilar bilan muloqotga kirishishida katta imkoniyatlar yaratadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni turli vaziyatlarda til birliklaridan foydalana olishga, o‘z nutqiga ongli munosabatda bo‘lishga, har bir aytgan so‘ziga nisbatan javobgarlikni his qilishga o‘rgatishi kerak. Ona tili o‘quv predmeti sifatida nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga, balki inson uchun umri davomida zarur bo‘ladigan til birliklarini amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim.

B. Turdiyevning “Yozma nutqni o‘stirish yuzasidan praktikum” nomli qo‘llanmasida yozma nutqning umumiy nazariy masalalari, yordamchi xarakterdagi yozma ishlar, kitob ustida mustaqil ishlash bilan bog‘liq yozma ishlar, ish qog‘ozlarini to‘ldirish, bayon va insho yozishga o‘rgatish masalalari yoritilgan.

A. G‘ulomov va M. Qodirovning “O‘zbek tilida nutq o‘stirish metodikasi” kitobida nutq o‘stirishning nazariy va amaliy ahamiyati, nutq o‘stirishga doir mashqlarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

M. Asqarova rahbarligida bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish” nomli o‘quv qo‘llanmasi asosan bog‘cha yoshidagi bolalar nutqini o‘stirish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan^[3]. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar nutqini o‘stirish ta‘limning keyingi bosqichlari uchun zamin ekanligini, nutq o‘stirish mashg‘ulotlarining mazmunini va ta‘lim usullarini oldindan aniqlash, bolalarga individual yondashish, mashg‘ulotning barcha bosqichlarida har bir bolaning nutqiy faolligini rivojlantirish zarurligini unutmazlik lozim.

B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodovalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida bo‘lajak mutaxassislarni maktab ta‘limiga tayyorlashda grammatik mavzularga bog‘liq holda o‘quvchilar nutqini o‘stirish va lug‘atini boyitish metodikasiga alohida e‘tibor qaratilgan [6]. Boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan barcha predmetlarga doir bilimlarning egallanishini ta‘minlaydigan turli mashqlar o‘quvchilarning savodli yozuvi, to‘g‘ri talaffuzi va og‘zaki nutqqa oid ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi, o‘quvchilar lug‘at zaxirasini boyitish barobarida o‘quv predmetlarini o‘zlashtirish hamda og‘zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirishning muhim sharti sanaladi.

Sh. Yusupovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning falsafiy asoslari” nomli monografiyasida ona tili ta‘limida o‘quvchilarning tilni amaliy o‘zlashtirishlariga erishishda mustaqil ish turlaridan foydalanish yaxshi samara berishi qayd etilgan^[7]. O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni o‘qishga qiziqtirish va ularda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb muammodir. Ma‘lumki, bilish faoliyati, bilish faolligi va bilish tashabbuskorligi kabi tushunchalar bilan bir qatorda bilish mustaqilligi ham katta ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari nazariy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya, tilshunoslik hamda nutq madaniyatiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Xususan, Sharq mutafakkirlarining nutq odobi va so‘z madaniyatiga doir qarashlari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, didaktik vositalar va ta‘lim texnologiyalarining samaradorligi ilmiy manbalar asosida umumlashtirildi. Shuningdek, nutq madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchining nutqi, muloqot muhiti, o‘quv topshiriqlari hamda interfaol metodlarning o‘rni tahlil qilindi.

Olingan nazariy ma‘lumotlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishning samarali yo‘llari va pedagogik shart-sharoitlari bo‘yicha xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarga berilgan grammatik bilim va ko‘nikmalar, nutq hamda imloga oid malakalar o‘quvchilar tomonidan aytilgan ayrim so‘z va gaplardagina emas, balki mantiqiy fikrlangan holda keltirilgan misollar, bayon va insholarda qo‘llangandagina puxta o‘zlashtirilgan hisoblanadi. O‘quvchida mustaqil matn yaratish malakasini hosil qilish uchun, avvalo, uning og‘zaki nutqini o‘stirish yuzasidan ish olib borish lozim. Chunki o‘quvchining og‘zaki nutqi qanchalik taraqqiy etgan bo‘lsa, bu uning yozma nutqida ham o‘z aksini topadi. O‘quvchi biror voqea-hodisani xoh yozma, xoh og‘zaki bayon qilishi uchun ma‘lum darajada so‘z

boyligiga ega bo'lishi, u yoki bu mavzuda fikrini aniq ifoda etishi uchun mavzu mazmuniga mos so'z va so'z birikmalarini topa bilishi, nutqda ularni o'z o'rinda ishlata olishi lozim.

Tadqiqotlar tahlili nutqiy bilim bilan nutqiy ko'nikmaning ikki xil hodisa ekanligini ko'rsatdi. Nutqiy bilim tilning barcha sathlariga doir bilimlarni o'zlashtirish asosida egallanadi, nutqiy ko'nikma esa nutqiy tizimni turli nutq uslublarida ishga solishdir. Inson nutqiy faoliyati davomida so'zning shakliga emas, balki uning ma'no tomoniga e'tibor qaratadi va o'z fikrini aniq ifodalash uchun kerakli so'zni tanlaydi. Nutq yo'nalishiga tez moslashish, uni rejalashtirish, nutq mazmunini ishlab chiqish uchun til vositalarini topa olish hamda ularni muomalaga kirita bilish nutqiy ko'nikma sanaladi.

K. D. Ushinskiy ta'kidlashicha, "Bolalarda so'zlash qobiliyatini rivojlantirish ularda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan deyarli bir xil narsa demakdir". Mantiqiy fikrlash boshlang'ich sinflarda shakllanadi va rivojlanadi, butun umr davomida takomillashib boradi. Inson fikri tilning shakl va vositalarida ifodalanadi. Fikr mazmuni qanchalik murakkab bo'lmasin, uni tilning sintaktik konstruksiyalari va morfologik shakllari ko'magida izchil aks ettirish mumkin. Shunday qilib, tilni o'zlashtirish, yetarli so'z boyligi va grammatik shakllarga ega bo'lish tafakkur rivoji uchun zamin yaratadi.

E. G'oziyev nutq yordamida voqelik aks ettirilishi va nutq tafakkur psixologiyasining muhim xususiyatlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Nutq – tilning fikr ifodalash hamda almashish jarayonida alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli bo'lib, uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'lish jarayonlari, ya'ni so'zlashish jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliqning eng xarakterli ko'rinishlaridan bo'lgan aniq, bir qadar umumiyroq til tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og'zaki nutq uchun xos bo'lgan ohang, mimika va qo'l harakatlaridan foydalana olmasligi bilan farqlanadi.

Nutqning monologik va dialogik turlari, qo'llanish sohasiga qarab badiiy nutq, ilmiy nutq, rasmiy nutq kabi shakllari mavjud. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ravonlik, soddalik, ta'sirchanlik nutqning eng muhim belgilari bo'lib qolishi kerak [8: 425-b.]. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq faoliyati hamda o'quvchilar nutqini o'stirish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun ehtiyoj bo'lishi kerak.
2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy va qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.
3. Nutqni til vositalari bilan qurollantirish zarur. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ongli ravishda "tilni sezish" shakllanadi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarni adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargonlardan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy va so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.
2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu orqali o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladilar.
3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi [105: 300-b.].

Bolalar olti yoshga to'lganda morfologiyaning eng muhim vositalari va sintaksisning ko'plab shakllarini so'zlashuv uslubi doirasida o'zlashtirib olgan bo'ladilar. Boshqacha aytganda, bolalar ona tilini nutq faoliyati, nutqni qabul qilish va so'zlashish orqali o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham bolalarning nutqiy faoliyati, muloqoti va o'z fikrlarini ifodalashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish juda muhim sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyati bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishda pedagogik shartlar majmuini aniqlar ekanmiz, biz ona tili ta'limiga zamonaviy jamiyat tomonidan qo'yilgan talablarga hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun til ta'limi mazmuniga asoslandik.



Ta'lim jarayonida muloqot, uning mohiyati, ahamiyati va roli haqida pedagogik tasavvurlar quyidagilarni qayd qilish imkonini berdi:

- a) muloqot – mahalliy va xorijiy pedagogika tarixida muloqotga murojaat qilish odamning o'zini anglash, ongini rivojlantirish va mustaqilligini namoyon etishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq (J. Dyui, I.G. Pestalossi, L.N. Tolstoy, K.D. Ushinskiy va boshqalar);
- b) muloqot – qadriyatlar mohiyatini izlash va ularni kechinmalar hamda harakatlarda mustahkamlash vaziyatidir (Ye.V. Bondarevskaya, Z.I. Vasileva, I.A. Kolesnikova, A.P. Tryapitsina va boshqalar);
- v) muloqot – antropotsentrizm, tushunish va qayg'udoshlikni ta'minlaydi, odamdagi individuallikni namoyon qiladi (R.Yu. Xudoyberganov, V. Diltey, Ye.I. Kazakova, A.G. Rivin va boshqalar);
- g) madaniyat bilan va madaniyat ichida tarbiyalash, bir tomondan, odamning ijtimoiy hayotga va muloqotga tabiiy yo'sinda kirishini ta'minlaydi, boshqa tomondan esa aynan muloqot orqali madaniyatlarni o'zlashtirish sodir bo'ladi (T.G. Braje, I.S. Gracheva, A.V. Mudrik va boshqalar).

1-jadval: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish komponentlarining mazmuni

Komponent	Mazmuni
Lingvistik	<ul style="list-style-type: none"> • faol lug'aviy, grammatik va fonetik materialni bilish; • tilning grafik tizimini bilish; • imlo qoidalari, ular turli tamoyillarga tayanishi; • og'zaki va yozma nutq uchun xos bo'lgan maxsus formulalar.
Psixologik	<ul style="list-style-type: none"> • nutq bo'yicha bilim va ko'nikmalar; • fikrni og'zaki va yozma shaklda ifodalash layoqati; • yozma nutq bilan og'zaki nutqning boshqa ko'rinish va shakllarining o'zaro ta'sirlashuvi xarakteri; • o'quvchilarning qiziqish va motivlarini hisobga olish.
Metodologik	<ul style="list-style-type: none"> • yozma va og'zaki nutqni takomillashtirish bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikmalari; • imlo qoidalari ko'rinishida turli tayanchlardan foydalanish ko'nikmalari; • turli lug'atlardan foydalanish ko'nikmalari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish komponentlari mazmuni shunday xulosa chiqarishga imkon beradiki, o'quvchilarga nutq faoliyatining mazkur turini o'rgatishda quyidagilar zarur sanaladi: til qoidalari o'zlashtirish, ona tili vositalari orqali o'zining yoki boshqalarning fikrini ifodalash maqsadida ulardan foydalanishni o'rganish, shuningdek, u yoki bu yozma fikrni mustaqil tuzishda turli tayanchlardan foydalanish ko'nikmasini egallash. Bunda o'qituvchining vazifasi ta'lim jarayonida barcha komponentlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun qulay shart-sharoit yaratishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishga imkon beruvchi yozma va og'zaki nutqni muvaffaqiyatli o'zlashtirish an'anaviy metodlar bilan interfaol metodlarning uyg'unligini ta'minlagan holda maxsus mashqlarni bajarish orqali amaliy ko'nikmalar hosil qilishni talab etadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

"Ona tili" o'quv predmeti boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxs nutqiy madaniyatini shakllantirish mazmuni o'z ichiga uchta komponentni qamrab oladi: lingvistik, psixologik va uslubiy.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish shunchaki savodxonlik darsi emas, balki millatning ma'naviy va intellektual kelajagini belgilaydigan strategik pedagogik jarayondir. Kichik maktab yoshidagi bolaning tili endigina shakllanayotgan yumshoq mumga o'xshaydi; unga qanday shakl berilsa, kelajakda shunday shaxs shakllanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutq madaniyatini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ta'lim jarayonini quruq qoidalar majmuasidan jonli, kreativ va muloqotga boy muhitga aylantirish zarur. O'qituvchining yuksak nutqiy namunasi, darslarda qo'llaniladigan innovatsion nutqiy vaziyatlar va bolaning fikrlash erkinligi mukammal nutq egasini tarbiyalashning asosiy pedagogik shartlaridan hisoblanadi. Nutqi go'zal, fikri teran va o'z ona tilining boy imkoniyatlaridan faxrlanadigan avlodni tarbiyalash boshlang'ich ta'limning eng oliy va muhim maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva Q. 1-sinfda nutq o'stirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1968.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 188 b.
3. Asqarova M. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 224 b.
5. Лвов М.Р. Речь младших школьников и пути её развития. – Москва, 1975. – 12 с.
6. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2010.
7. Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning falsafiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2004.
8. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2003. – 704 b. (425-b.)
9. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.